

## **2024/2025-o‘quv yili uchun Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga bakalavriat yo‘nalishlariga xorijiy fuqarolarni qabul qilish tartibi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bakalavriat yo‘nalishlariga xorijiy fuqarolarni o‘qishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2008-yil 4-avgustdagi 169-son qaroriga asosan test sinovlarisiz, JIDUda o‘tkaziladigan suhbat natijalariga ko‘ra va reyting tizimiga muvofiq to‘plangan ballarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

JIDU bakalavriatida o‘qish uchun hujjatlarni topshirgan xorijiy fuqarolar, ularning dunyoqarashi, kasbiy layoqati va motivatsiyasi, umumiy intellektual va ma‘naviy-axloqiy darajasini aniqlash nuqtai nazaridan suhbatdan o‘tkaziladi.

Suhbat Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishgan holda JIDU tomonidan belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi.

Suhbat o‘tkazish muddatlari to‘g‘risida ma‘lumot JIDU tomonidan uning rasmiy veb-saytida suhbat o‘tkazilishidan kamida 15 kun oldin e‘lon qilinadi.

Xorijiy fuqarolar bilan suhbat bevosita yoki zaruratga ko‘ra masofaviy (onlayn) tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Xorijiy fuqarolarni qabul qilish quyidagi hollarda amalga oshirilmaydi:

- *jadval bo‘yicha suhbatga kelmaganda (0 ball qo‘yiladi);*
- *suhbatda belgilangan maksimal ballning 55 foizi va undan kam ball to‘plaganda.*

JIDU bakalavriat yo‘nalishlariga xorijiy fuqarolarni qabul qilish uchun suhbatni qayta o‘tkazish taqiqlanadi.

Suhbat natijalari shikoyat qilinishi va apellatsiya tartibida ko‘rilishi mumkin emas.